

Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi OMMAVIY OFERTA

Toshkent shahri
2025 yil "1" maydan amal qiluvchi

Ushbu ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda **Shartnoma** yoki **Oferta** deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358-moddasiga muvofiq "**Tashkent International University of Education**" Mas'uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o'rinlarda "**Universitet**" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan har qanday jismoniy shaxsga yo'naltirilgan ommaviy oferta hisoblanadi va ushbu Shartnomani unda ko'rsatilgan shartlarda O'zbekiston Respublikasining butun hududida qabul qilinadi.

Shartnoma taraflari quyidagilardan iborat: "**Tashkent International University of Education**" Mas'uliyati cheklangan jamiyati, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Tuzel-2, Imom Buhoriy ko'chasi, 31-uy manzilida ro'yxatga olingan, Ustav asosida faoliyat yurituvchi bosh direktor-ректор **Xodjaev Nosir Nodirovich**, va bundan buyon "**Talaba**" deb yuritiladigan, o'z manfaatlarini ko'zlab **Shartnoma** tuzish uchun murojaat etgan **jismoniy shaxs**.

Ushbu **Oferta** faqat ushbu **Shartnomaga** bir butun sifatida qo'shilish orqali qabul qilinishi mumkin (istisnolar va shartlarsiz).

Ushbu **Shartnoma** ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish shartlarini tartibga soladi (keyingi o'rinlarda "**Xizmatlar**" deb yuritiladi) ushbu Shartnoma bo'yicha tomonlarning asosiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasi normalariga ko'ra, ushbu ofertani qabul qilish ofertada ko'rsatilgan shartlar bo'yicha yozma shartnoma tuzishga tengdir.

Talabaning Universitetda oferta shartlariga roziligini imzolashi va Shartnoma ilovasini olishi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga ko'ra, Talaba tomonidan Ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi hisoblanadi, bu esa Shartnoma tuzilgani bilan tengdir.

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА о предоставлении образовательных услуг

г. Ташкент
действующая с "1" мая 2025 года

Настоящая публичная oferta (далее – **Договор** или **Oferta**), в соответствии со статьей 358 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, является публичной offerтой ООО "Tashkent International University of Education" (далее - "**Университет**"), адресованной любому физическому лицу, находящемуся на территории Республики Узбекистан, и принимается на всей территории Республики Узбекистан на условиях, указанных в настоящем Договоре.

Сторонами договора являются Общество с ограниченной ответственностью «**Tashkent International University of Education**», созданное в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, зарегистрированное по адресу: г.Ташкент, Яшнабадский район, массив Тузель-2, ул. Имам Бухарий, дом 31 в лице Генерального директора - ректора **Ходжаева Носира Нодировича**, действующего на основании Устава и **физическое лицо**, именуемое в дальнейшем «**Студент**», обратившийся за заключением Договора в своих интересах.

Данная **Oferta** может быть принята только путем присоединения к настоящему Договору в целом (без исключений и оговорок).

Настоящий **Договор** регулирует условия предоставления и использования образовательных услуг (далее - "**Услуги**") и определяет основные права и обязанности сторон по настоящему Договору. Согласно нормам статьи 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, принятие данной offerты равносильно заключению письменного договора на условиях, указанных в offerте.

Подписание Студентом согласия с условиями offerты в Университете и получение Приложения к договору считается полным и безоговорочным акцептом Offerты Студентом, согласно статье 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, что равносильно заключению Договора.

Universitet Ommaviy oferta shartlarini istalgan vaqtda o'z xohishiga ko'ra, ushbu Ommaviy ofertada belgilangan tartibda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ushbu Ommaviy oferta shartlari Universitetga murojaat qilgan barcha shaxslar uchun bir xil

Ofertaning yangi tahriri 2025 yil "25" apreldan va <https://tiue.uz/> veb-saytida joylashtirilgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

I. ATAMALAR

Universitet - "Tashkent International University of Education" Mas'ulyati cheklangan jamiyati, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Tuzel-2, Imom Buhoriy ko'chasi, 31-uy manzilida ro'yxatga olingan

Talaba - Universitet bilan ushbu Ofertada keltirilgan shartlar asosida shartnoma tuzgan, ta'lim xizmatlarini olayotgan, o'z nomidan ish yuritadigan hamda bir vaqtning o'zida to'lovchi hisoblanadigan jismoniy shaxsdir.

Xizmatlar - Universitet tomonidan Talabaga **Shartnoma** shartlari hamda **Universitetda** qabul qilingan qoidalarga muvofiq ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari.

Pova - Universitetga o'qishga kirgandan so'ng Talabaga taqdim etiladigan shartnomaning ajralmas qismi bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi: Talabaning F.I.O., ta'lim bosqichi, ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi, ta'lim tili va shakli, ta'lim yo'nalishining davomiyligi, ta'lim narxi hamda to'lov muddatlari.

II. SHARTNOMANING MAZMUNI

2.1. Universitet ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Talabaga oliy ma'lumot olish uchun ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi, Talaba esa ushbu shartnomaga muvofiq ko'rsatilgan ta'lim xizmatlar haqini to'laydi.

2.2. Ushbu shartnoma Talabaning ilovada ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligida Universitet tomonidan tasdiqlangan ta'lim dasturi bo'yicha tahsil olishini anglatadi.

Университет оставляет за собой право в любое время по своему усмотрению изменить условия публичной оферты в порядке, установленном настоящей публичной офертой. Условия настоящей Публичной оферты одинаковы для всех обратившихся в Университет.

Новая редакция Оферты вступает в силу с "25" апреля 2025 года и момента ее размещения на сайте <https://tiue.uz/>

I. ТЕРМИНЫ

Университет - Общество с ограниченной ответственностью «Tashkent International University of Education», созданное в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, зарегистрированное по адресу: г.Ташкент, Яшнабадский район, массив Тузель-2, ул. Имам Бухарий, дом 31.

Студент – физическое лицо, заключившее с Университетом договор на условиях, содержащихся в настоящей Оферте, получающее образовательные услуги, действующее от своего имени, являющееся одновременно Плательщиком.

Услуги - образовательные услуги, предоставляемые Университетом Студенту на условиях и в соответствии с положениями Договора и правилами, принятыми в Университете.

Приложение - неотъемлемая часть договора, предоставляемого Студенту после поступления в Университет, в котором указываются: Ф.И.О. Студента, этап обучения, направление или специальность обучения, язык и форма обучения, продолжительность направления обучения, стоимость обучения и сроки оплаты.

II. СОДЕРЖАНИЕ ДОГОВОРА

2.1. Университет обязуется предоставить Студенту образовательные услуги по получению высшего образования в соответствии с условиями настоящего Договора, а Студент обязуется оплатить образовательные услуги, оказываемые в соответствии с настоящим Договором.

2.2. Настоящий Договор предусматривает, что Студент в Университете будет проходить обучение по стандартной образовательной программе, утвержденной Университетом, по направлению обучения или специальности, указанной в приложении.

2.3. Talaba Universitetning “Abituriyentlarni qabul qilish tartib-qoidalari”ga muvofiq qabul qilinadi.

2.3. Прием абитуриентов осуществляется в соответствии с «Правилами приёма абитуриентов» Университета.

III. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Universitetning majburiyatlari:

3.1.1. Universitetning ichki qoidalarida nazarda tutilgan ta’lim uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

3.1.2. Talabaning O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida nazarda tutilgan huquqlarini erkin amalga oshirishini hamda Universitetning “Talabalar uchun qo‘llanma”sida nazarda tutilgan vazifalar bajarilishini ta’minlash;

3.1.3. Universitetning “Abituriyentlarni qabul qilish tartib-qoidalari”ga muvofiq Talabalarni aniqlash;

3.1.4. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida amaldagi o‘quv rejasiga muvofiq Talabaning mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim berishni tashkil etish va ta’minlash;

3.1.5. Talabani o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan Universitetning ichki qoidalari bilan tanishtirish;

3.1.6. Universitetning akademik kalendar hamda uning ichki qoidalariga muvofiq, har semestr yakunida Talabaga akademik ko‘rsatkich natijalarini taqdim etish;

3.1.7. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan ta’lim uchun to‘lovni qabul qilish.

3.1.8. Universitet Talaba tomonidan o‘quv reja bo‘yicha o‘zlashtirilishi uchun javobgar emas.

3.1.9. Universitet o‘qishni tamomlagan Talabani ishga joylashtirish majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi.

3.2. Universitetning huquqlari:

3.2.1. Talaba tomonidan ushbu shartnoma majburiyatlari bajarilishi ustidan muntazam ravishda nazorat olib borish;

3.2.2. O‘quv jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirishni hamda baholash tizimini, Talabani oraliq nazoratdan o‘tkazish tartibi va muddatlarini belgilash;

3.2.3. Tasdiqlangan dars jadvaliga akademik soatlar sonini kamaytirmagan holda o‘zgartirishlar kiritish;

III. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН

3.1. Обязанности Университета:

3.1.1. Создание необходимых условий для обучения, предусмотренных в внутренних правилах Университета;

3.1.2. Обеспечение равных прав на образование Студента в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об образовании» и выполнение обязанностей, предусмотренных в «Руководстве для студентов» Университета;

3.1.3. Отбор Студентов в соответствии с «Правилами приёма абитуриентов» Университета;

3.1.4. В течении срока действия настоящего Договора организация и обеспечение обучения по специальности Студента в соответствии с действующим учебным планом;

3.1.5. Ознакомить Студента с внутренними правилами Университета, касающимися образовательной деятельности;

3.1.6. В соответствии с академическим календарем Университета и его внутренними правилами представление результатов академических показателей Студента в конце каждого семестра;

3.1.7. Прием оплаты за обучение, предусмотренной настоящим Договором.

3.1.8. Университет не несет ответственности за усвоение Студентом учебной программы.

3.1.9. Университет не берет обязательств по трудоустройству Студента по окончании срока его обучения в Университете.

3.2. Права Университета:

3.2.1. Проведение регулярного контроля за выполнением обязательств по настоящему Договору Студентом;

3.2.2. Самостоятельная реализация учебного процесса и системы оценивания, определение порядка и сроков проведения промежуточного контроля Студента;

3.2.3. Внесение изменений в утвержденное расписание занятий без сокращения количества академических часов;



- 3.2.4. Talabadan ushbu shartnoma shartlariga va Universitetning ichki lokal hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida to'lovni amalga oshirishini talab qilish;
- 3.2.5. Ta'lim maqsadlari uchun Talabaning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish (uning pasport yoki ID karta seriya raqamidan, JShShIR va boshqa ma'lumotlaridan).
- 3.2.6. Universitet hududida videokuzatuvni joriy etish va ushbu videokuzatuvdan Universitet tomonidan xavfsizlik va o'quv jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida foydalanish. Bundan tashqari, Universitetning marketing maqsadlarida Talabaning foto va video materiallardan foydalanish.
- 3.2.7. Talaba ushbu Shartnoma ilovalarida ko'rsatilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirmaganda hamda shartnomada va Universitetning ichki qoidalarida ko'rsatilgan boshqa shartlarni buzgan taqdirda, Universitet tomonidan shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- 3.2.8. Talaba Universitetning ichki qoidalarini hamda ushbu shartnoma shartlarini buzgan taqdirda uning Universitet binosiga kirishini va o'quv resurslaridan foydalanishini cheklash;
- 3.2.9. Talaba tomonidan to'lovlar kechiktirilgan taqdirda Talabani Universitetdan chetlashtirish yoki ta'limdan vaqtincha cheklash hamda o'quv resurslaridan foydalanishni cheklash to'g'risida qaror qabul qilish;
- 3.2.10. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu shartnoma, Universitetning ustavi va boshqa lokal hujjatlariga muvofiq Talabaga rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash;
- 3.2.11. Talaba tomonidan o'z majburiyatlarini bajarilishi ustidan doimiy monitoringni amalga oshirish;
- 3.2.12. Kunduzgi ta'limga ta'sir etuvchi epidemiologik vaziyat yomonlashganda va boshqa holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, Davlat organlarining qaroriga muvofiq odamlarning birgalikda bo'lishiga cheklovlar qo'yilganda ta'lim jarayonlarini onlayn format (masofaviy o'qitish)ga o'tkazish;
- 3.2.13. Universitet o'z Nizomi va chegirmalar siyosatiga muvofiq, abituriyentlarga bonuslik chegirmalarni taqdim etish yoki ularni bekor qilish, chegirma berish mezonlarini o'zgartirish, ularni ko'rib chiqish yoki yangilash, shuningdek, chegirma berish
- 3.2.4. Требование от Студента своевременной оплаты в соответствии с условиями настоящего договора и внутренними локальными актами Университета;
- 3.2.5. Использование персональных данных Студента (его серийный номер паспорта или удостоверения личности, ПИНФЛ и другие данные) для учебных целей.
- 3.2.6. Осуществление видеонаблюдения на территории Университета и использование Университетом данного видеонаблюдения в целях безопасности и надлежащего ведения учебного процесса. Кроме того, использование фото и видеоматериалов Студента для маркетинговых целей Университета.
- 3.2.7. Одностороннее расторжение договора Университетом в случае неуплаты Студентом в сроки, указанные в Приложениях к настоящему Договору, и нарушения других условий, указанных в договоре и внутренних правилах Университета;
- 3.2.8. Ограничение доступа к образовательным ресурсам и в здание Университета в случае нарушения Студентом внутренних правил Университета и условий настоящего Договора;
- 3.2.9. В случае несвоевременной оплаты Студентом принятие решения об отчислении Студента из Университета либо временном отстранении его от обучения и ограничении использования образовательных ресурсов;
- 3.2.10. Применение к Студенту мер поощрения и мер дисциплинарного взыскания в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, Уставом, настоящим Договором и другими локальными актами Университета;
- 3.2.11. Проведение постоянного мониторинга по выполнению Студентом своих обязательств.
- 3.2.12. Перевод обучения в онлайн формат (дистанционное обучение) при ухудшении эпидемиологической обстановки, влияющей на дневное обучение и наличии иных обстоятельств, а также при установлении ограничений совместного пребывания лиц в соответствии с решением органов государственной власти;
- 3.2.13. Предоставлять или отменять бонусные скидки абитуриентам в соответствии со своим Уставом и политикой скидок, изменять критерии предоставления скидки, рассматривать или обновлять их, а также



to'g'risidagi har qanday arizani rad etish, taqdim etilgan hujjatlar yoki ma'lumotlar asosida chegirma berishni to'xtatish yoki qayta ko'rib chiqish, istisno holatlarda chegirma miqdorini individual tartibda belgilash;

3.2.14. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va Universitet boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

3.3. Talabani majburiyatlari:

3.3.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan oliy ta'lim muassasalarining talabalariga qo'yilgan talablar, shuningdek, Universitetning ta'lim jarayoni va faoliyatini tartibga soluvchi buyruq, nizom, tartib, qo'llanma, yo'riqnoma va qoidalariga muvofiq ta'lim olish;

3.3.2. Universitetda qabul qilingan ichki tartib-qoidalar va boshqa hujjatlariga hamda Universitetda umumiy qabul qilingan axloq me'yorlari va intizomlariga rioya qilish;

3.3.3. Face ID tizimidan foydalangan holda Universitetning dars jarayonlarida majburiy qatnashish.

3.3.4. Universitet mol-mulkidan belgilangan talablar asosida foydalanish va ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hamda unga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplash;

3.3.5. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'limni tamomlaganligi to'g'risidagi shahodatnoma, diplom, sertifikat va boshqa talab qilinadigan hujjatlarning asl nusxasini Universitetda ta'lim muddati davomida saqlanishi uchun o'quv yili boshlanishidan 15 (o'n besh) kun oldin taqdim etish;

3.3.6. O'quv yili boshlanishidan 15 (o'n besh) kun oldin Universitetda ushbu ofertaning barcha shartlariga shaxsan rozilik bildirish va imzolash;

3.3.7. Plovada ko'rsatilgan to'lov miqdorini belgilangan muddatlarda Universitetning bank hisob raqamiga kelib tushishi uchun barcha zarur choralarni ko'rish;

отказывать в любом заявлении о предоставлении скидки, прекращать или пересматривать предоставление скидки на основании представленных документов или информации, устанавливать размер скидки в исключительных случаях в индивидуальном порядке;

3.2.14. Осуществление иных прав, предусмотренных действующим законодательством Республики Узбекистан и другими внутренними документами Университета.

3.3. Обязанности Студента:

3.3.1. Получать образование в соответствии с требованиями, предъявляемыми к обучающимся высших учебных заведений, установленными законодательством Республики Узбекистан, а также порядком, положениями, процедурами, пособиями, инструкциями и правилами, регламентирующими образовательный процесс и деятельность Университета;

3.3.2. Соблюдение внутренних правил и иных документов, принятых в Университете, а также общепринятых моральных и этических норм в Университете;

3.3.3. Обязательное посещение занятий в Университете с использованием системы Face ID.

3.3.4. Пользование имуществом Университета в соответствии с установленными требованиями, бережное отношение к нему и возмещение за причинение ущерба в установленном порядке;

3.3.5. Не позднее, чем за 15 (пятнадцать) дней до начала учебного года предоставление оригинала аттестатов, дипломов, сертификатов и других необходимых документов, подтверждающих окончание общего среднего, среднего специального или профессионального образования, для хранения в Университете на период обучения;

3.3.6. Лично подписать согласие на все условия настоящей оферты в Университете за 15 (пятнадцать) дней до начала учебного года;

3.3.7. Принятие всех необходимых мер, чтобы оплата за обучение, указанная в Приложении, поступила на банковский расчетный счет Университета в установленные сроки;



3.3.8. Akademik kalendar va dars jadvaliga muvofiq dars jarayonlariga qatnashish. Universitet tomonidan belgilangan kiyinish madaniyatiga rioya qilish, ozoda ko'rishga ega bo'lish;

3.3.9. Universitetni dars jarayonlariga uzrli sabablar bilan qatnasha ololmasa yozma ravishda xabardor qilish;

3.3.10. Onlayn ta'lim (masofaviy o'qitish)ga o'tishda Universitet tomonidan belgilangan tartibda masofaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda doimiy ravishda o'qish;

3.3.11. Talaba Universitet tomonidan taqdim etiladigan chegirmalardan foydalanish uchun belgilangan muddatda, belgilangan tartibda va to'liq hujjatlarni topshirish, chegirma olishga asos bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlarni aniq va haqqoniy taqdim etish.

3.4. Talabani huquqlari:

3.4.1. Universitetning ta'lim jarayoni bilan bog'liq masalalar bo'yicha Universitet ma'muriyatiga murojaat qilish;

3.4.2. Universitetning tegishli tartib qoidalariga muvofiq, Talabada kutilmagan holatlar yuzaga kelganda akademik ta'til olish uchun yozma ravishda Universitetga murojaat qilish;

3.4.3. Talaba to'liq bakalavr ta'lim dasturini tugatgunga qadar Universitet talabalari safidan chetlashtirilsa yoki o'z xohishi bilan ta'lim olishni rad etsa o'zlashtirgan ta'lim kreditlari bo'yicha qisman ta'lim dasturini o'zlashtirganligi to'g'risidagi hujjatni olish;

3.4.4. Ushbu shartnomaga kiritilmagan qo'shimcha ta'lim xizmatlaridan alohida tuzilgan shartnomaga muvofiq foydalanish;

3.4.5. Universitet Talabalari uchun tashkil etilgan ijtimoiy-madaniy va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

3.4.6. Universitet tomonidan taqdim etiladigan chegirma va grantlardan faqat bittasini tanlab, undan foydalanish (eng yuqori miqdori yoki Talaba tomonidan tanlangani).

3.3.8. Посещать занятия в соответствии с академическим календарем и расписанием занятий. Соблюдать установленную Университетом культуру одежды, иметь опрятный внешний вид;

3.3.9. Письменно извещать Университет об уважительных причинах своего отсутствия на занятиях;

3.3.10. При переводе на обучение в онлайн формат обучаться на постоянной основе, используя удаленные средства связи, в установленном Университетом порядке;

3.3.11. Студент в установленные сроки, предоставит в установленном порядке и в полном объеме документы для использования предоставляемых Университетом скидок, точное и достоверное предоставление всей необходимой информации, которая послужит основанием для получения скидки.

3.4. Права Студента:

3.4.1. Обращаться в администрацию Университета по вопросам, связанным с образовательным процессом Университета;

3.4.2. В соответствии с действующими правилами Университета обращаться в Университет в письменной форме с заявлением об академическом отпуске в случае возникновения непредвиденных обстоятельств;

3.4.3. Получить документ об освоении частичной образовательной программы по освоенным образовательным кредитам в случае отчисления Студента из Университета или добровольного отказа от обучения до окончания полной программы бакалавриата.

3.4.4. Пользоваться дополнительными образовательными услугами, не входящими в настоящий договор, на основании отдельно заключенного Договора.

3.4.5. Принимать участие в социально-культурных и других мероприятиях, организованных для Студентов Университета.

3.4.6. Использовать только одну из скидок и грантов, предлагаемых Университетом (максимальную сумму или ту, которую выбирает Студент).

IV. O‘QITISH MUDDATLARI

4.1. Tanlangan yo‘nalish bo‘yicha o‘qish muddati ushbu Ofertaning Ilovasida belgilab o‘tiladi.

4.2. Ta‘lim xizmatini ko‘rsatish davri (o‘qish davri) deganda Talabani Universitetga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruqda belgilangan sanadan boshlab, Talabani o‘qishni tugatish yoki talabalar safidan chiqarish to‘g‘risidagi buyruqda belgilangan sanagacha bo‘lgan davr tushuniladi.

4.3. Talabaning ta‘lim muddati o‘quv yillariga bo‘linadi, ularning har biri ikki o‘quv semestr (yarim yillikdan) tashkil topadi.

V. TA‘LIM UCHUN TO‘LOV TARTIBI VA SHARTLARI

5.1. Ta‘lim xizmatlar uchun to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida - so‘mda Universitetning bank hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan va/yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ruxsat etilgan boshqa usullarda amalga oshiriladi.

5.2. Ta‘lim xizmatlari uchun haq to‘lash miqdori va tartibi ushbu Ofertaning ilovalarida belgilab qo‘yiladi.

5.3. Universitet ta‘lim xizmatlar (ta‘lim) uchun to‘lov miqdorini keyingi o‘quv yillarida bir tomonlama o‘zgartirishga haqli.

5.4. Talabaning ta‘limda o‘zlashtirish natijalari qoniqarsiz bo‘lgan taqdirda, bir yoki bir nechta fanlarni qayta o‘zlashtirish (Trail, Remodule) yoki qayta ichki imtihonlarni topshirish zarurati yuzaga kelganda, tanlangan fan(lar) bo‘yicha to‘lov miqdori Universitet tomonidan tasdiqlangan ichki tartib (nizom, buyruq) asosida belgilanadi.

Fan(lar) bo‘yicha qayta ichki imtihon(lar)ni topshirish uchun to‘lov miqdori rektor buyrug‘i bilan tasdiqlanadi va Universitet tomonidan belgilangan muddatlarda Talaba tomonidan bir martalik to‘lov bilan to‘lanadi.

5.5. Ta‘lim xizmatlari uchun to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, Talaba Universitetning tegishli buyrug‘i bilan talabalar safiga (keyingi kursga) qabul qilinadi.

IV. СРОКИ ОБУЧЕНИЯ

4.1. Срок обучения по выбранному направлению указывается в Приложении к настоящей Оферте.

4.2. Под периодом предоставления образовательной услуги (периодом обучения) понимается промежуток времени с даты, установленной в приказе о зачислении Студента в Университет, до даты, установленной в приказе об окончании обучения или отчислении Студента из Университета.

4.3. Срок обучения Студента делится на учебные годы, каждый из которых состоит из двух учебных семестров (полугодий).

V. ПОРЯДОК И УСЛОВИЯ ОПЛАТЫ ОБУЧЕНИЯ

5.1. Оплата образовательных услуг производится в национальной валюте Республики Узбекистан – сум, путем перечисления на расчетный счет Университета и/или иными способами, разрешенными законодательством Республики Узбекистан.

5.2. Размер и порядок оплаты образовательных услуг указывается в приложениях к настоящей Оферте.

5.3. Университет вправе в одностороннем порядке изменять размер оплаты образовательных услуг (обучения) в последующие учебные годы.

5.4. В связи с неудовлетворительными результатами обучения Студента, в случае повторного изучения одного или нескольких предметов (Trail, Remodule) или повторной сдачи внутренних экзаменов, сумма оплаты, установленная по выбранному (-ым) предмету(-ам), оплачивается на основании внутреннего порядка (правила, приказ), утвержденного Университетом.

Размер платы за сдачу повторного внутреннего экзамена(ов) по предмету(предметам) утверждается приказом ректора и оплачивается Студентом единовременным платежом в сроки, установленных Университетом.

5.5. После внесения оплаты за обучение Студент зачисляется в ряды обучающихся (на следующий курс) соответствующим приказом Университета.



5.6. Barcha to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan bank xarajatlari (komissiya) Talaba tomonidan to'lanadi (qoplanadi).

5.7. To'lovni amalga oshirishda Talaba to'lov hujjatlari (to'lov maqsadi)da talabaning F.I.O., pasport seriyasi yoki shaxsiy guvohnoma raqamini, shuningdek Ilova raqami va sanasini ko'rsatishi shart.

5.8. Talabaga Universitet tomonidan bir nechta chegirma va grantlar taqdim etilgan bo'lsa, faqat bir turdagi chegirma yoki grant qo'llaniladi (eng yuqori miqdordagi yoki Talaba tomonidan tanlangani).

5.9. Talaba Universitetning tegishli buyrug'i bilan talabalar safiga qabul qilingandan (keyingi kursga o'tkazilgandan) so'ng ta'lim xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlar qaytarib berilmaydi.

5.10. Ushbu shartnoma bekor qilinganda yoki Talaba chetlashtirilganda Universitet bilan kelishilgan holda, faqat o'qish boshlanmagan semestr uchun quyidagi hollarda to'lov summasi qaytarilishi mumkin:

- sog'lig'iga ko'ra (tibbiy ma'lumotnomasiga asosan);
- sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilinganligi munosabati bilan;
- vafot etganda.

5.11. Talaba akademik ta'til olgan taqdirda keyingi semestr uchun to'lagan to'lov mablag'i qaytarib berilmaydi, ushbu mablag' keying o'quv yili ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun bo'nak sifatida saqlab qolinadi.

5.12. Ta'lim xizmatlar hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi har bir akademik semestr uchun semestr yakunida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibida rasmiylashtiriladi.

5.13. Ushbu shartnoma bo'yicha Talabaga o'qish davrida Universitet tomonidan stipendiya to'lash ko'zda tutilmagan.

VI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA TALABANI TA'LIM JARAYONIDAN CHETLATISH

6.1. Ushbu shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- 6.1.1. Taraflarning o'zaro kelishuvi orqali;
- 6.1.2. ushbu shartnomaning 6.2 bandiga muvofiq Talaba chetlashtirilganda;

5.6. Расходы по банковским сборам (комиссиям), связанным со всеми банковскими платежами, оплачивает (несет) Студент.

5.7. При осуществлении платежа Студент в платежных документах (цель платежа) должен указать Ф.И.О. Студента, серию паспорта или номер удостоверения личности, а также номер Приложения и дату.

5.8. Если Студент получил несколько видов скидок и грантов от Университета, Студент выбирает только один вид скидки или гранта (наивысшая сумма или грант, выбранный Студентом).

5.9. После зачисления Студента в ряды Студентов (перевода на следующий курс) соответствующим приказом Университета произведенные платежи за обучение не возвращаются.

5.10. При расторжении настоящего Договора или отчислении Студента по согласованию с Университетом сумма оплаты может быть возвращена только за семестр, в котором обучение не началось, в следующих случаях:

- по состоянию здоровья (на основании медицинской справки);
- в связи с лишением свободы судом;
- в случае смерти.

5.11. В случае получения студентом академического отпуска сумма оплаты за следующий семестр возврату не подлежит, данная сумма сохраняется в качестве аванса на оказание образовательных услуг на следующий учебный год.

5.12. Образовательные услуги оформляются счетом-фakturой и актом выполненных работ в конце каждого академического семестра в порядке, установленном законодательством Республики.

5.13. Выплата стипендий Студенту в период обучения со стороны Университета по настоящему договору не предусмотрена.

VI. РАСТОРЖЕНИЕ ДОГОВОРА И ОТСТРАНЕНИЕ СТУДЕНТА ОТ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

6.1. Настоящий договор может быть расторгнут в следующих случаях:

- 6.1.1. по взаимному согласию Сторон;
- 6.1.2. при отчислении Студента в соответствии с пунктом 6.2 настоящего Договора;



- 6.1.3. Taraflardan biri ushbu shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan taqdirda;
- 6.1.4. ushbu shartnomaning ilovada ko'rsatilgan muddatlarda to'lovlar amalga oshirilmaganda;
- 6.1.5. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 6.2. Talaba quyidagi hollarda Universitetdan chetlatilishi mumkin:
- 6.2.1. o'z xohishiga ko'ra;
- 6.2.2. boshqa oliy ta'lim muassasasi (tashkiloti)ga o'tishi munosabati bilan;
- 6.2.3. ta'limda o'zlashtirish natijalari qoniqarsiz (akademik muvaffaqiyatsiz) bo'lganligi sababli;
- 6.2.4. bir akademik semestr davomida Universitetning ichki hujjatlarida belgilangan miqdorda asossiz o'tkazib yuborilgan akademik soatlar uchun;
- 6.2.5. Universitetning ichki qoidalari va umumiy qabul qilingan axloq me'yorlari va intizomlariga rioya qilmaganligi uchun;
- 6.2.6. sog'lig'iga ko'ra (tibbiy ma'lumotnomasiga asosan);
- 6.2.7. soxtalashtirilgan hujjatlarni taqdim etganligi;
- 6.2.8. sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilinganligi munosabati bilan;
- 6.2.9. vafot etganligi sababli
- 6.3. Shartnoma bekor qilinganda va/yoki Talaba chetlashtirilganda ta'lim xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlar Universitet tomonidan qaytarib berilmaydi. Ushbu shartnomaning 5.10-bandi bundan mustasno.
- 6.1.3. в случае несоблюдения одной из сторон условий настоящего договора;
- 6.1.4. при неуплате платежей в сроки, указанные в Приложении к настоящему Договору;
- 6.1.5. в иных случаях, предусмотренных действующим законодательством Республики Узбекистан.
- 6.2. Студент может быть отчислен из Университета в следующих случаях:
- 6.2.1. по собственному желанию;
- 6.2.2. в связи с переводом в другое высшее учебное заведение (учреждение);
- 6.2.3. из-за неудовлетворительных результатов обучения (неуспеваемости);
- 6.2.4. за необоснованно пропущенные академические часы в течение одного академического семестра в количестве, установленном внутренними актами Университета;
- 6.2.5. За несоблюдение внутренних правил Университета, а также общепринятых моральных и этических норм;
- 6.2.6. по состоянию здоровья (на основании медицинской справки);
- 6.2.7. предоставление поддельных документов;
- 6.2.8. в связи с лишением свободы судом;
- 6.2.9. в случае смерти;
- 6.3. Плата за оказанные образовательные услуги в случае расторжения договора и/или отчисления Студента Университетом не возвращается. За исключением пункта 5.10 настоящего Договора.

VII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik va lozim darajada bajarmaganlik uchun Taraflar O'zbekiston Respublikasi qonun-hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 7.2. Universitet ta'lim xizmatlari uchun to'lov o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Talabadan kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda penya undirishga haqli.

VII. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

- 7.1. Стороны несут ответственность в соответствии с законодательством Республики Узбекистан за неисполнение своих обязательств по настоящему договору и ненадлежащее их исполнение.
- 7.2. В случае несвоевременной оплаты за обучение Университет имеет право взыскать со Студента пеню в размере 0,4 % суммы просроченного платежа за каждый день прострочки, но не более 50% суммы просроченного платежа.



7.3. Ushbu shartnoma bo'yicha Taraflar jarima to'lash bilan o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etilmaydi.

7.4. Talaba tomonidan Universitetning mulk (bino, jihozlari, texnika vositalari, va h.k.)lariga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda Universitet oldida to'liq javobgar bo'ladi.

7.5. Talaba ushbu shartnoma shartlarini buzgan yoki shartnoma to'lovlaridan qarzдорligi mavjud bo'lgan taqdirda Universitet hududiga kirishi, o'quv resurslaridan foydalanishi cheklanadi hamda ma'lumot va ma'lumotnomalar berilishi, ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi to'xtatiladi.

7.6. Talabani Universitetdan chetlashtirish yoki cheklashda ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun Talabani to'lov qilish majburiyatlaridan ozod qilmaydi.

7.7. Ushbu shartnomada Taraflarning majburiyatlarini buzganlik holatlari uchun javobgarlik choralari ko'zda tutilmagan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

VIII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Taraflar ushbu shartnomadan kelib chiqadigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklarni do'stona muzokaralar orqali hal qilish uchun barcha say-harakatlarni amalga oshiradilar.

8.2. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo, kelishmovchilik, da'vo yoki unga amal qilmaslik, vaqtincha to'xtatish, bekor qilish do'stona muzokaralar orqali hal etish imkoniyati bo'lmasa O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida ko'riladi.

IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN (FORS-MAJOR) HOLATLAR

9.1. Agar ushbu Shartnomada belgilangan majburiyatlarning bajarilishiga (talabani to'lov majburiyatlaridan tashqari) quyidagi holatlarning biri yoki bir nechta sabab bo'lsa: hukumatning harakatlari yoki harakatsizligi, urush (e'lon qilingan yoki e'lon qilinmagan), harbiy harakatlar, qaroqchilik, sanoat mojaro (shu jumladan ishning kechikishi va mehnat qonun-qoidalarini bo'yicha ishlash), yong'in,

7.3. Оплата штрафа не освобождает Стороны от исполнения обязательств по настоящему Договору.

7.4. Студент несет полную ответственность перед Университетом в случае причинения материального ущерба имуществу (зданию, оборудованию, помещениям и т.п.) Университета.

7.5. В случае нарушения Студентом условий настоящего Договора и наличия задолженности по платежам по договору, ему/ей будет запрещен вход в здание Университета, использование образовательных ресурсов, а также будет прекращено предоставление образовательных услуг, информации и рекомендаций.

7.6. Отчисление или ограничение Студента от Университета не освобождает Студента от обязанности оплаты оказанных образовательных услуг.

7.7. Если настоящим Договором не предусмотрена ответственность за нарушения обязательств Сторон, они регулируются в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.

VIII. ПОРЯДОК РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ

8.1. Стороны приложат все усилия для разрешения путем мирных переговоров всех споров или разногласий, вытекающих из настоящего Договора.

8.2. Любой спор, разногласие или претензия, вытекающие из настоящего Договора, либо его несоблюдение, временное приостановление или расторжение, при отсутствии возможности его решения путем мирных переговоров, регулируются в судебном порядке в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.

IX. ОБСТОЯТЕЛЬСТВА НЕПРЕОДОЛИМОЙ СИЛЫ (ФОРС-МАЖОР)

9.1. В случае возникновения каких-либо препятствий для выполнения какого-либо обязательства по настоящему Договору (кроме обязательства Студента по оплате), действия или бездействия правительства, войны (объявленной или необъявленной), военных действий, пиратства, промышленного конфликта (включая задержка работы и работу



portlash yoki boshqa sabablar (yuqoridagi voqealarning birortasiga o'xshash bo'lishidan qat'iy nazar), tomon majburiyatlarni bajarmaslik uchun javobgar bo'lmaydi va javobgarlikdan ozod qilinadi (to'lov majburiyatlaridan tashqari). Bunday holatlarning yuzaga kelishi yoki tugashi to'g'risida tomon darhol boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majburdir.

в соответствии с правилами) в каком-либо месте или ином месте сторон, вследствие пожара, взрыва или иных причин (независимо от сходства в каком-либо из вышеперечисленных событий) Сторона освобождается от ответственности и не несет ответственности за несоблюдение (кроме платежных обязательств), действует это как предупреждение, препятствие, ограничение или задержка. В каждом из этих случаев сторона, добывающаяся освобождения, должна немедленно уведомить другую сторону в письменной форме об их возникновении и прекращении.

X. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

10.1. Ushbu Shartnoma Talaba tomonidan akseptlangan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

X. СРОК ДЕЙСТВИЯ ДОГОВОРА

10.1. Настоящий Договор вступает в силу со дня его акцепта Студентом и действует до полного исполнения Сторонами своих обязательств.

XI. UMUMIY QOIDALAR

11.1. Ushbu shartnomani tasdiqlash bilan Talaba mazkur oferta shartlari, Universitetning barcha ichki hujjatlari, shuningdek, <https://tiue.uz/> veb-saytida joylashtirilgan boshqa ma'lumotlar bilan tanishib chiqqanligini, ularning barchasiga rozi ekanligini va qabul qilishini shartnoma tuzilgan sanadan tasdiqlaydi.

XI. ОБЩИЕ ПРАВИЛА

11.1. Заключая настоящий договор, Студент подтверждает, что ознакомился с условиями настоящей оферты, всеми локальными документами Университета, а также с иной информацией, размещенной на сайте <https://tiue.uz/> на дату заключения договора, согласен и принимает все данные условия и документацию.

11.2. Taraflarning manzili, aloqa raqami va boshqa rekvizitlari o'zgargan taqdirda Taraflar tomonlarni zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishlari shart bo'ladi.

11.2. В случае изменения адреса, контактного телефона и иных реквизитов Сторон, Стороны обязаны незамедлительно уведомить об этом в письменной форме.

11.3. Talaba ushbu shartnomani tuzish va uning shartlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish, yo'q qilishga Universitetga ta'lim faoliyati uchun cheklamagan muddatga o'z roziligini beradi.

11.3. Студент даёт свое согласие на сбор, систематизацию, уничтожение своих персональных данных, связанных с заключением и исполнением настоящего договора, в целях осуществления образовательной деятельности Университета без ограничения срока действия.

11.4. Talabani o'qishdan chetlashtirish, Universitet tashabbusi bilan ushbu Shartnomani (ofertani) muddatidan oldin bekor qilish, ta'lim xizmatlari narxining o'zgarishi va ushbu Shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzish zarurligi to'g'risida; shuningdek, ushbu Shartnoma shartlarini tegishli darajada bajarmayotganligi yoki umuman bajarmaganligi va Shartnomaning boshqa shartlari bajarilishi haqida xabardor qilish quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi: Talaba qabul paytida

11.4. Надлежащим уведомлением Студента об отчислении, о досрочном расторжении настоящего Договора (оферты) по инициативе Университета, об изменении стоимости образовательных услуг и необходимости заключения дополнительного соглашения к настоящему Договору; о ненадлежащем исполнении и (или) неисполнении условий настоящего Договора, и иных условий выполнения настоящего Договора, является



taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan elektron pochta manziliga xabarnoma yuborish yoki tegishli ma'lumotlarni Universitet va O'quv bo'limining axborot stendlariga joylashtirish. Ushbu usullar bilan amalga oshirilgan xabardor qilish lozim darajadagi xabarnoma hisoblanadi.

11.5. Talaba Universitetning xabarnomasi yuzasidan javob yubormagani taqdirda, Universitet yuqorida ko'rsatilgan usullardan biri orqali tegishli ma'lumotni jo'natgan sanadan boshlab 5 (besh) taqvim kuni o'tgach, Talaba tegishli ravishda xabardor qilingan deb hisoblanadi.

11.6. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan asoslarga ko'ra o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

11.7. Ushbu oferta (shartnoma) o'zbek va rus tillarida tuzilgan. Biron bir nomuvofiqliklar yuzaga kelgan taqdirda, shartnomaning o'zbek tilidagi matni ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

уведомление осуществленное посредством одного из следующих способов: направления уведомления на адрес электронной почты, указанный Студентом в сданных при приеме документах; размещения соответствующей информации на информационных стендах Университета и Учебного подразделения.

11.5. В случае отсутствия ответа, направленного Студентом, в адрес Университета на уведомление, Студент считается уведомленным надлежащим образом по истечении 5 (пяти) календарных дней с даты направления Университетом соответствующей информации одним из вышеуказанных способов.

11.6. Договор может быть изменен или расторгнут по основаниям, предусмотренным законодательством Республики Узбекистан..

11.7. Настоящая oferta (договор) составлена на узбекском и русском языках. В случае расхождений в толковании текст на узбекском языке имеет преимущественную силу.

XII. REKVIZITLAR / XII. РЕКВИЗИТЫ

UNIVERSITET / УНИВЕРСИТЕТ

“Tashkent International University of Education” MCHJ

Pochta manzili / Адрес:

Toshkent 100000 / Ташкент, 100000
Yashnobod tumani / Яшнабадский р-н
Tuzel – 2 mavzesi/ массив Тузел – 2
Imom Buxoriy ko'chasi, 31-uy /
ул.Имама Бухарий, д. 31

To'lov rekvizitlari

/ Платежные реквизиты:

h.r. / p.c.: 2021 4000 6052 9006 8001

ATB Universal banking Toshkent f-li /
в АКБ Универсал банк Ташкентский ф-л

Bank kodi / МФО: 00973

STIR / ИНН: 307 806 311

OKED / ОКЭД: 85420



Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi
ommaviy ofertaga
ILOVA

ПРИЛОЖЕНИЕ
к Публичной оферте об оказании
образовательных услуг

**202_-202_-o'quv yili uchun Talabaga
ko'rsatiladigan ta'lim xizmatining
SPETSIFIKATSIYASI**

СПЕЦИФИКАЦИЯ
по представлению студенту образовательных
услуг, на 202_-202_ учебный год

Raqami	
Sanasi	

Номер	
Дата	

I. TALABA HAQIDA MA'LUMOT

Talabaning F.I.SH.	
Pasport/ID karta seriyasi va raqami	
JShShIR	

I. СВЕДЕНИЯ О СТУДЕНТЕ

Ф.И.О. студента	
Серия и номер паспорта/ID-карты	
ПИНФЛ	

**II. TA'LIM YO'NALISHI HAQIDA
MA'LUMOT:**

Ta'lim darajasi	
Ta'lim yo'nalishi	
Ta'lim tili	
Ta'lim shakli	
Ta'lim yo'nalishining davomiyligi	
Ta'lim bosqichi	

**II. ИНФОРМАЦИЯ О НАПРАВЛЕНИИ
ОБРАЗОВАНИЯ:**

Степень образования	
Направление обучения	
Язык обучения	
Форма обучения	
Продолжительность направления обучения	
Курс обучения	

**III. TA'LIM UCHUN TO'LOV TARTIBI VA
SHARTLARI**

3.1. Bir o'quv yil uchun ta'lim xizmatlari to'lov miqdori _____ (_____) so'm, shunga ko'ra bir semestr uchun ta'lim to'lovi _____ (_____) so'mni tashkil qiladi.

3.2. **Shartnoma summasining 25% miqdoridagi dastlabki to'lov 202_-yil 1-avgustdan kechiktirmay to'lanadi.** Ushbu bo'nak to'lovi Universitetning kvotasi doirasida Talabaning berilgan joyini saqlab qolinishini kafolatlaydi.

**III. ПОРЯДОК И УСЛОВИЯ ОПЛАТЫ
ОБУЧЕНИЯ**

3.1. Размер оплаты образовательных услуг за один учебный год составляет _____ (_____) сум, соответственно стоимость обучения за один семестр составляет _____ (_____) сум.

3.2. **Первоначальный взнос в размере 25% от суммы договора оплачивается в срок не позднее 1 августа 202_ года.** Этот взнос гарантирует бронирование места Студента в пределах квоты Университета;



- ikkinchi 25% miqdoridagi to'lov 202_ yilning 15 noyabrga qadar amalga oshiriladi;
- uchinchi 25% miqdoridagi to'lov 202_ yilning 15 yanvarga qadar amalga oshiriladi;
- oxirgi 25% miqdoridagi to'lov 202_ yilning 1 martiga qadar amalga oshiriladi.

3.3. Talabaga Universitet tomonidan bir nechta chegirma va grantlar taqdim etilgan bo'lsa, faqat bir turdagi chegirma yoki grant qo'llaniladi (eng yuqori miqdordagi yoki Talaba tomonidan tanlangani).

IV. QO'SHIMCHA MA'LUMOT

4.1. Ushbu Pova 2025 - yil 1 - maydan kuchga kirgan ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

4.2. To'lovlar kechiktirilgan taqdirda Ommaviy ofertaning 7.2-bandiga muvofiq penya hisoblanadi.

- второй платеж в размере 25% осуществляется до 15 ноября 202_ года;
- третий платеж в размере 25% осуществляется до 15 января 202_ года;
- окончательный платеж в размере 25% осуществляется до 1 марта 202_ года.

3.3. Если Студент получил несколько видов скидок и грантов от Университета, Студент выбирает только один вид скидки или гранта (наивысшая сумма или грант, выбранный Студентом).

IV. ДОПОЛНИТЕЛЬНАЯ ИНФОРМАЦИЯ

4.1. Настоящее Приложение является неотъемлемой частью публичной оферты, вступившей в силу с 1 мая 2025 года.

4.2. В случае задержки оплаты начисляется пеня в соответствии с пунктом 7.2 публичной оферты.

“TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION” MCHJ

Pochta manzili / Адрес:

Toshkent 100000 / Ташкент, 100000
Yashnobod tumani / Яшнабадский р-н
Tuzel – 2 mavzesi/ массив Тузел – 2
Imom Buxoriy ko'chasi, 31-uy /
ул.Имама Бухарий, д. 31

To'lov rekvizitlari /

Платежные реквизиты:

h.r. / p.c.: 2021 4000 6052 9006 8001
ATB Universal banking Toshkent f-li / в АКБ
Универсал банк Ташкентский ф-л
Bank kodi / МФО: 00973
STIR / ИНН: 307 806 311
OKED / ОКЭД: 85420

